



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019-yil yanvar-noyabr

## RAQAMLAR:


- 2019-yil yanvar- noyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 6733,6 mlrd.so'm-ni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 164,4 % ni tashkil etdi.
- Savdo xizmatlari ulushi ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmida 43,4 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2598,7 ming.so'mni o'sish sur'ati 109,1 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

2019-yil yanvar- noyabr oylarida Surxondaryo viloyatida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 6733,6 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,5 %ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta hajm savdo xizmatlari (2921,5 mlrd.so'm)ni tashkil etadi.

## Ko'rsatilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm




Shu bilan birga, Savdo (2921,5 mlrd.so'm) transport xizmatlari hajmi (1025,8 mlrd.so'm), moliyaviy xizmatlar (1016,7 mlrd.so'm), Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (316,7 mlrd.so'm).


Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 18,9 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning jami korxonalar va tashkilotlar sonidagi ulushi 66,6% ni tashkil etdi.

### 2019-yil yanvar-noyabr oylarida korxonalar va tashkilotlar jami sonida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




### 2019-yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %



2019-yil yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (116,5 %), Denov (110,2 %), Sherabod (108,4 %), Uzun (107,3%), Qumqo'rg'on (106,9 %) tumanlarida qayd etildi.

### 2019-yil yanvar- noyabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Sho'rchi (105,3 %), Muzrabot (105,3 %), Boysun (105,8 %), Angor (106,5 %), Qiziriq, Sariosiyo, Jarqo'rg'on (106,7 %), Oltinsoy, Termiz (106,8 %) tumanlarida kuzatildi.

### 2019-yil yanvar-noyabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi


	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Surhondaryo viloyati</b>	<b>6733,6</b>	<b>111,5</b>
Termiz sh	3046,7	116,5
tumanlar:		
Oltinsoy	179,4	106,8
Angor	181,9	106,5
Boysun	143,9	105,8
Muzrabot	242,1	105,3
Denov	1117,9	110,2
Jarqo'rg'on	243,1	106,7
Qumqo'rg'on	234,6	106,9
Qiziriq	220,9	106,7
Sariosiyo	269,3	106,7
Termiz	163,9	106,8
Uzun	176,3	107,3
Sherobod	271,7	108,4
Sho'rchi	242,0	105,3

Hududlar o'rtasida eng katta xizmatlar hajmi Termiz shahrida (3046,7 mlrd.so'm) va Denov tumaniga (1117,9 mlrd.so'm) to'g'ri keladi.

Eng past hajmlar Boysun (143,9 mlrd.so'm) va Termiz (163,9 mlrd.so'm) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar o'rtasida Termiz shahri yetakchi o'rinni egallaydi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi 45,2 % ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar umumiy hajmida hududlar bo'yicha eng yuqori ulushlarni Denov tumani (16,6 %), Sariosiyo), Sherobod (4,0%) tumanlari tashkil etadi.


**2019-yil yanvar- noyabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi**  
(jami hajmga nisbatan), %



Hududlar o'rtasida eng past ulushlar Boysun (2,1%), Termiz (2,4%), Uzun (2,6%) Angor, Oltinsoy (2,7 %), Qiziriq (3,3 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar- noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2598,7 ming.so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 109,1 % ni tashkil etdi.

### 2019-yil yanvar- noyabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Termiz shahrida – 20939,4 ming.so'm qayd etildi. 2018-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan o'sish 115,5 % ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Qumqo'rg'on tumanida – 977,2 ming.so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 104,3 % ni tashkil etdi.

## 2019-yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajm mird so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>6733,6</b>	<b>111,5</b>
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	316,7	110,9
Moliyaviy xizmatlar	1016,7	164,4
Transport xizmatlari	1025,8	101,9
<i>Shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	975,2	101,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	213,6	109,8
Savdo xizmatlari	2921,5	106,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	188,8	101,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	195,6	101,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	69,5	106,1
Ijara xizmatlari	166,2	105,9
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	177,1	100,5
Shaxsiy xizmatlar	186,4	100,4
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	85,1	116,2
Boshqa xizmatlar	170,6	100,2

2019-yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Savdo xizmatlari (43,4 %), Transport xizmatlari (15,2 %), Moliyaviy xizmatlar (15,1 %) Aloqa va axborotlashtirish (4,7 %), Yashash va ovqatlanish (3,2 %) xizmatlari bo'yicha jami hajmga nisbatan ulushlar qayd etildi.

## 2019-yil yanvar- noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



%

Taqqoslash uchun, 2019-yil yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar -164,4 %, me'morchilik sohasidagi-116,2 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari- 110,9 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari - 109,8 %, Savdo xizmatlari-106,1 %.



2019-yil yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 2921,5 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 43,4 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 479,8 mlrd.so'mga oshdi.

Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Termiz sh. (1361,9 mlrd.so'm), Denov (354,5 mlrd. so'm), Sariosiyo (122,7 mlrd. so'm), Sherabod(122,2 mlrd. so'm), Sho'rchi (117,4 mlrd.so'm), Qumqurg'on (112,4 mlrd. so'm), Qiziriq (107,8 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.

### 2019-yil yanvar- noyabr oylarida hududlar bo'yicha savdo xizmatlarining hajmi, mlrd. so'm




Savdo xizmatlarining eng past ko'rsatkichi Boysun tumanida kuzatilmoqda. Ushbu hududda, savdo xizmatlari hajmi 65,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Surxondaryo viloyati transportining samarali ishlashi modernizatsiyalash, innovatsion rivojlanish yo'llariga o'tish va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun sharoit yaratishda alohida o'rin tutadi.

Jami xizmatlar tarkibida yetakchi o'rinni transportda ko'rsatilgan xizmatlar (15,2 %) egallaydi.

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida hudular bo'yicha  
avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar ulushi  
(avtomobil xizmatlarining umumiy hajmiga nisbatan), %**



**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

Mas'ul: P.Eshboyeva

Tel: (0371) 230-85-84